MA’LUMOT.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va ilm-fan vazirligining 2026-yil 12-noyabrdagi 06-1809-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini 2025-2026-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 32-bandi ijrosi yuzasidan Urganch davlat pedagogika institutida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Xususan, 2026-yil 5-oktyabr kuni Urganch davlat pedagogika institutining Aniq fanlar pedagogika oliy maktabi talabalari ishtirokida Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz shiori ostida tadbir tashkil etildi. Mahallamiz hududini toza va ozoda saqlash, chiqindilarni belgilangan joylarga tashlash hamda atrof-muhitga e’tiborli bo‘lish - barchamizning umumiy vazifamiz.

https://t.me/UrDPIaniqfanlar/23527





2026-yil 5-oktyabr kuni Filologiya fakultetida Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz shiyori ostida tadbir tashkil etildi. Mahallamiz hududini toza va ozoda saqlash, chiqindilarni belgilangan joylarga tashlash hamda atrof-muhitga e’tiborli bo‘lish - barchamizning umumiy vazifamiz.

https://t.me/UrDPI_Filologiya/13262





2026-yil 7-oktabr kuni Urganch davlat pedagogika institutida atrof-muhitni asrash, mahallalarni obod va ozoda saqlash, yoshlarda ekologik madaniyat hamda volontyorlik ruhini shakllantirish maqsadida Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalari ishtirokida obodonlashtirish va tozalash ishlari amalga oshirildi. alabalar volontyorlik asosida mahalla hududini chiqindilardan tozalash, atrofni obodonlashtirish va tozalikni targ‘ib etish ishlarida

faol qatnashdilar.Tadbir Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi tyutori Ch. Masharibova boshchiligida tashkil etildi.
https://t.me/urdpiboshlangichtalim/20038






2026-yil 14-oktabr kuni Urganch davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakukteti rahbarli ishtirokida hamda tyutorlari va fakultet yoshlar yetakchisi A.Kamoladdinovlar boshchiligida “Yashil makon” doirasida tadbir o‘tkazildi. Tadbirdan maqsad institut hududini toza saqlash,chiqindilardan holi qilinishini ta’minlashdan iborat.
https://t.me/UrDPI_Ijtimoiy_va_amaliy_fanlar/12410






2026-yil 15-oktabr kuni Urganch davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakukteti rahbar hodimlari tomonidan hamda tyutorlar boshchiligida “Yashil makon” 1 kunlik aksiyasi o‘tkazildi. Tadbirdan maqsad institut hududini toza saqlash,chiqindilardan holi qilinishini ta’minlashdan iborat.
https://t.me/UrDPI_Ijtimoiy_va_amaliy_fanlar/12471





2026-yil 15-oktabr kuni Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari A.Sapayev, fakultet tyutori N.Ataboyeva fakultet kordinatori A.Ro‘zmetov hamda faol talabalar ishtirokida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbiri tashkil etildi. Tadbir davomida hududni yanada obod va ko‘rkam maskanga aylantirish, yashil maydonlarni kengaytirish hamda atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish bo‘yicha amaliy ishlar olib borildi.
https://t.me/UrDPI_Pedagogika/12795



2026-yil 15-oktabr kuni Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti rahbarlari hamda ishchi-xodimlari ishtirokida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chat ekish va hududni ko‘kalamzorlashtirish tadbiri tashkil etildi.Tadbir davomida ekilgan ko‘chatlar institut hududining yanada obod va fayzli bo‘lishi, ekologik muhitni yaxshilash hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.Mazkur tashabbus tabiatga bo‘lgan e’tibor va mas’uliyatni oshirish, yashil hududlarni kengaytirish hamda kelajak avlod uchun sog‘lom ekologik muhit yaratishga qaratilgan.
https://t.me/UrDPI_Filologiya/14006



2026-yil 3-noyabr kuni Oliy ta’lim muassasalarida ekologik madaniyatni yuksaltirish, atrof-muhit musaffoligini ta’minlash hamda yoshlarda tabiatga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantirish maqsadida “Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz” shiori ostida targ‘ibot va amaliy aksiyalar o‘tkazilmoqda.Mazkur aksiya doirasida Urganch davlat pedagogika instituti Aniq fanlar pedagogika oliy maktabi tyutorlari va fakultetning faol talabalari tomonidan "Umid" mahallasida obodonlashtirish va tozalash ishlari amalga oshirildi.
https://t.me/UrDPIaniqfanlar/25390





2026-yil 10-noyabr kuni Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya fakultetida talaba-yoshlar o‘rtasida ekologik madaniyatni yuksaltirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga mehr va mas’uliyat hissini shakllantirish maqsadida “EKO-VOLONTYORLIK” tashabbusi doirasida targ‘ibot tadbiri bo‘lib o‘tdi.Tadbir davomida talaba-yoshlarga tabiatni asrash, atrof-muhit tozaligiga e’tiborli bo‘lish, yashil hududlarni ko‘paytirish hamda ekologik muammolarga befarq bo‘lmaslikning ahamiyati haqida tushunchalar berildi. Shuningdek, faol va tashabbuskor talabalarni eko-volontyorlik harakatiga jalb etish, ekologik madaniyatni kundalik hayot tarziga aylantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.
https://t.me/UrDPI_Filologiya/15974






2026-yil 11-noyabr kuni Urganch davlat pedagogika institutida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Boshlang‘ich ta’lim fakulteti tyutorlari I. Qabulova, Ch. Masharibova va A. Bobojonovlar ishtirokida ko‘chat ekish, yashil hududlarni obodonlashtirish hamda atrof-muhitni yanada ko‘kalamzorlashtirishga qaratilgan xayrli ishlar amalga oshirildi. Tadbir davomida ekilgan har bir ko‘chat yurtimiz kelajagi, musaffo havo va ekologik barqarorlik yo‘lidagi ezgu qadamlardan biri bo‘ldi.
https://t.me/urdpiboshlangichtalim/22990






2026-yil 11-noyabr kuni Urganch davlat pedagogika instituti hududida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kuzgi ko‘chat ekish ishlari tashkil etildi.Mazkur xayrli tadbirda institut rektori v.b. Diyorjon Abdullayev boshchiligida barcha rahbar xodimlar, professor-o‘qituvchilar, ishchi-xodimlar hamda ko‘ngilli talaba-yoshlar faol ishtirok etdilar.Tadbir davomida institut hududini yanada ko‘kalamzorlashtirish, yashil maydonlarni kengaytirish va atrof-muhitni obodonlashtirish maqsadida turli manzarali daraxt ko‘chatlari ekildi. Bunday ezgu tashabbuslar nafaqat yurtimiz tabiatini asrash, balki yosh avlod qalbida ekologik madaniyat va atrof-muhitga mas’uliyat hissini shakllantirishga ham xizmat qiladi.
https://t.me/UrDPI_UZ/46610



